e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar
Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies
ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/r5568331

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Seytmuratova Venera Shimbergenovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, assistent-o‘qituvchi.
e-mail: veneraseytmuratova08@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/

Annotatsiya.
Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash ko‘nikmalariga bevosita bog‘liq. Ushbu ko‘nikmalar tarbiyachilarga bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, yuzaga kelgan pedagogik muammolarning sabablarini aniqlash hamda vaziyatga mos ta’lim-tarbiya usullarini tanlash imkonini beradi. O‘z faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilish esa bo‘lajak tarbiyachilarga tanlangan usullarning samaradorligini baholash va keyingi faoliyatiga zarur o‘zgartirishlar kiritishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: argumentatsiya, fenomenografiya, metakognitsiya, pedagogik qaror, refleksiya, savol berish.

КРИТЕРИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Сейтмуратова Венера Шимбергеновна
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, ассистент-преподаватель.

Аннотация.
Повышение качества дошкольного образования напрямую зависит от того, насколько у будущих воспитателей сформированы умения анализировать педагогические ситуации, принимать обоснованные решения и рефлексивно оценивать собственную деятельность. Эти умения позволяют воспитателям учитывать возрастные и индивидуальные особенности детей, выявлять причины возникающих педагогических проблем и выбирать методы обучения и воспитания с учётом конкретной ситуации. Систематический анализ результатов собственной работы помогает будущим воспитателям оценивать эффективность выбранных методов и вносить необходимые коррективы в дальнейшую деятельность.

Ключевые слова: аргументация, феноменография, метакогниция, педагогическое решение, рефлексия, постановка вопросов.

CRITERIA FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PROSPECTIVE PRESCHOOL EDUCATORS

Seytmuratova Venera Shimbergenovna
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Assistant Lecturer.

Abstract.
Improving the quality of preschool education depends directly on prospective preschool teachers’ ability to analyze pedagogical situations, make informed decisions, and reflect on and evaluate their own practice. These skills enable teachers to take into account children’s developmental stages and individual characteristics, identify the causes of challenges that arise in the classroom, and select teaching and guidance strategies suited to each situation. By regularly reviewing the outcomes of their work, prospective teachers can assess how well their chosen strategies work and adjust their future practice accordingly.

Keywords: argumentation, phenomenography, metacognition, pedagogical decision-making, reflection, questioning.

Kirish. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash ko‘nikmalariga bog‘liq. P. A. Facione tanqidiy fikrlashni dalillarni tahlil qilish, asoslangan xulosalar chiqarish va o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishni qamrab oladigan jarayon sifatida izohlaydi [1]. Tarbiyachi faoliyatida bu ko‘nikmalar bolalarning xatti-harakatlarini kuzatish, pedagogik vaziyatning ehtimoliy sabablarini aniqlash va bolaning yosh hamda individual xususiyatlariga mos yondashuvni tanlashda namoyon bo‘ladi. Mavjud tadqiqotlarda ushbu ko‘nikmalarni maktabgacha ta’lim dasturi, o‘yin faoliyati va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan bog‘liq holda rivojlantirishning metodik jihatlari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

A. Zohar metakognitiv refleksiyaning ta’limdagi ahamiyatini asoslagan [2]. Bo‘lajak tarbiyachi uchun bunday refleksiya pedagogik qarorning qanday dalillarga tayanganini anglash, uning natijalarini baholash va keyingi faoliyatini shu asosda rejalashtirish imkonini beradi. Masalan, bola guruhli o‘yinga qo‘shilmayotgan vaziyatni tahlil qilishda talabalar kuzatuv natijalariga tayangan holda bir nechta ehtimoliy sababni ilgari surishi, bolani o‘yinga jalb etish usullarini muhokama qilishi va tanlagan yechimini asoslashi mumkin. Tadqiqotning nazariy ahamiyati kompetensiyaviy yondashuvni maktabgacha tarbiya nazariyasi bilan bog‘liq holda boyitishda namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa bo‘lajak

ISSN 3060-5059 (Online)

tarbiyachilarni tayyorlash mashg‘ulotlariga pedagogik vaziyatlarni hamkorlikda tahlil qilish, qarorlarni asoslash va ularni refleksiv baholashga yo‘naltirilgan kooperativ o‘qitish topshiriqlarini kiritish bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Fenomenografik tahlilda ajratilgan pedagogik qarashlar konstruktivistik ta’limning muammoli vaziyatlar va dialogik hamkorlik bilan boyitilishini talab qiladi. Amerikalik tadqiqotchi R. Ennis “Tanqidiy fikrlash faqat ma’lumotni tahlil qilishdan iborat emas, balki u dalillarning ishonchliligini aniqlash, turli qarashlarni solishtirish, asoslangan xulosaga kelish va o‘z pozitsiyasini himoya qilishni ham qamrab oladi” [3], deb tanqidiy fikrlashni inson nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerakligini aniqlashga yo‘naltirilgan oqilona va refleksiv fikrlash sifatida tushuntiradi.

Peter A. Facione tarbiyachining mashg‘ulot vaqtida bir bolaning topshiriqni bajarishda qiynalayotganini kuzatib, vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishi, bolaning qiynalish sabablarini aniqlashi, mavjud ma’lumotlarni ilmiy baholashi, muammoning ehtimoliy sabablarini o‘rganishi, tegishli pedagogik yechimni asoslashi va qo‘llagan metodining samaradorligini qayta tahlil qilishi kabi masalalarni tadqiq etgan. U mazkur ko‘nikmalar bo‘lajak tarbiyachilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlarini belgilash uchun eng bevosita va tizimli nazariy asoslardan biriga aylanishining ahamiyatini ta’kidlab o‘tgan [4].

Richard Paul va Linda Elder tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning intellektual standartlari va fikrlash elementlari ustida olib borgan tadqiqotlari doirasida aniqlik, haqiqatga muvofiqlik, dolzarblik, mantiqiylik va boshqa bir qator intellektual standartlarga e’tibor qaratganlar. Shuningdek, olimlar fikrlash jarayonining maqsad, muammo, taxmin, nuqtayi nazar, axborot, tushuncha, xulosa va oqibat kabi elementlarini ham ajratib ko‘rsatadilar. Bu esa “bo‘lajak tarbiyachilarning fikrni asoslash, xolis baholash, pedagogik muammolarga keng qamrovli yondashish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi” [5], degan xulosaga olib keladi.

D. Rashidova maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil etish imkoniyatlarini yoritadi [6]. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilar tayyorgarligida o‘yin faoliyati, kuzatuv va savolga asoslangan muhokama birgalikda qo‘llanishi lozim. Bunda innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga qanday yangilik olib kirishi, bolalarning bilish faolligi va ijodkorligini qanday rivojlantirishi hamda mashg‘ulot samaradorligini oshirishdagi o‘rnini ochib berish nazarda tutiladi.

N. A. Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqib, kasbiy tayyorgarlikni tizimli pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi [7]. Demak, adabiyotlarda dalillash, savol berish, xulosa chiqarish va refleksiya mezonlari mavjud, ammo ularni uch bosqichli pedagogik tajribada yagona tashxis materiali sifatida birlashtirish yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu bo‘shliq formativ baholash va pedagogik shart-sharoitlarni mezonlar asosida tekshirishni talab qiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Tadqiqotda bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashni qanday tushunishi va bu tushuncha ularning pedagogik qarorlarida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash uchun fenomenografik dizayn qo‘llanildi. Adabiyotlar tahlili asosida ajratilgan dalillash, savol berish, xulosa chiqarish va refleksiya mezonlari ishtirokchilarning pedagogik vaziyatlarga doir fikrlarini tahlil qilishga asos bo‘ldi. Tadqiqot materialini suhbat bayonnomalari, refleksiv yozuvlar, muammoli vaziyatlarga berilgan javoblar va kuzatuv qaydlari tashkil etdi. Materiallar mavzuga bevosita aloqadorligi, mazmuniy to‘liqligi hamda ishtirokchining pedagogik qarorga qanday kelganini izohlash imkoniyatiga ko‘ra tanlandi.

Fenomenografik tahlilda bo‘lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashni tushunish variantlari qiyoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari asosida tavsiflash kategoriyalari shakllantirildi. Kategoriyalarni tashkil etuvchi jihatlar tahlil qilinar ekan, ishtirokchi pedagogik vaziyatning qaysi tomonlariga e’tibor bergani, qanday dalillarga tayangani va o‘z xulosasini qay tarzda asoslagani hisobga olindi. Sifatiy gorizontal tahlil orqali bir mezonning turli ishtirokchilar javoblarida qanday ifodalangani taqqoslandi. Bu jarayon pedagogik vaziyatlarni tushunish va izohlashdagi farqlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Sifatiy kontent-tahlil davomida suhbatlar, yozma javoblar va kuzatuv qaydlaridagi fikrlar mazmuniy birliklarga ajratildi hamda ularning konteksti hisobga olingan holda kodlandi. Kodlashda dalillarga tayanish, muqobil fikrlarni taqqoslash, savollarning aniqligi, xulosalarning asoslanganligi va metakognitiv refleksiya mezonlari qo‘llanildi. Masalan, muammoli vaziyatga berilgan javobda ishtirokchi qanday yechim taklif qilgani, uni qaysi dalil bilan asoslagani va boshqa yechimlarni ko‘rib chiqqani tahlil qilindi. Refleksiv yozuvlarda esa ishtirokchi o‘z fikrlash jarayonini qanday izohlagani, dastlabki qarorini qayta ko‘rib chiqish uchun qanday asoslarni keltirgani o‘rganildi. Olingan materiallar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kooperativ o‘qitish va interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilindi.

MUHOKAMA

Kategoriyalar matritsasida aks etgan natijalar tajriba guruhida bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik vaziyatlarni asoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarida ijobiy siljishlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar refleksiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va dialogik hamkorlikning birgalikda qo‘llanishi bilan izohlanishi mumkin. Muammoli vaziyatlar talabalarni hodisaning ehtimoliy sabablarini aniqlashga yo‘naltirgan bo‘lsa, guruhdagi muhokama turli izohlarni qiyoslash va tanlangan yechimni asoslash imkonini yaratdi. Refleksiv topshiriqlar esa talabalarga muhokamadan so‘ng dastlabki qarorini qayta baholashga yordam berdi. Nazorat guruhida odatiy tushuntirishga ko‘proq tayanilgani sababli mustaqil savol berish va qarorni dalillar bilan asoslash uchun imkoniyatlar nisbatan cheklangan bo‘lishi mumkin. Bunday talqin Kuhnning bilim va xulosalar muhokama jarayonida shakllanishi haqidagi qarashlariga mos keladi.

Foizli taqsimotdagi siljishlar dalillash, savol berish, xulosa chiqarish va refleksiya mezonlarida birgalikda o‘zgarish kuzatilganini ko‘rsatadi. Pedagogik vaziyatni aniqlashtiruvchi savol dalillarni to‘plashga yordam beradi. To‘plangan dalillar muqobil izohlarni qiyoslash va asoslangan xulosaga kelish uchun xizmat qiladi. Refleksiya bosqichida esa ishtirokchi

ISSN 3060-5059 (Online)

xulosasi qaysi dalillarga tayanganini hamda yangi ma'lumot paydo bo'lganda uni qayta ko'rib chiqish zaruratini baholaydi. P. C. Abrami va hammualliflarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalari haqidagi xulosalari bu talqinga mos keladi [7]. Mazkur tadqiqot doirasida dialogik hamkorlik bo'lajak tarbiyachilarning turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashi, o'z qarorini dalillar bilan asoslab berishi va muqobil yechimlarni baholashi uchun sharoit yaratgan pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Nazariy jihatdan ushbu jarayon kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni kooperativ o'qitish orqali bog'laydi. Pedagogik amaliyotda formativ baholash topshiriqlari talabaning qanday qarorga kelgani bilan birga, qaror uchun qaysi dalillarni tanlagani, qanday muqobil yechimlarni ko'rib chiqqani va o'z xulosasini qanday baholaganini aniqlashga yordam beradi. Natijalarni talqin qilishda tanlanmaning kichikligi, fenomenografik kategoriyalarning tadqiqotchi talqiniga bog'liqligi va shakllantiruvchi intervensiyaning qisqa davom etgani hisobga olinishi lozim. Keyingi tadqiqotlarda turli pedagogik ta'lim muassasalarida uzoq muddatli kuzatuv o'tkazish hamda bo'lajak tarbiyachilarning mazkur ko'nikmalarni bolalarning o'yin faoliyati bilan bog'liq kasbiy vaziyatlarda qanday qo'llashini qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Fenomenografik va sifatiy kontent-tahlil natijasida dalillash, savol berish, xulosa chiqarish hamda refleksiya bo'lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashini baholashning o'zaro bog'liq mezonlari sifatida tizimlashtirildi. Pedagogik vaziyatga doir aniqlashtiruvchi savollar muammoning ehtimoliy sabablarini ochishga, dalillarni taqqoslash esa muqobil yechimlarni baholash va asoslangan xulosaga kelishga xizmat qiladi. Metakognitiv refleksiya jarayonida bo'lajak tarbiyachi o'z qaroriga qanday kelganini tahlil qiladi hamda yangi ma'lumot asosida uni qayta ko'rib chiqadi.

Tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar muammoli vaziyatlarni dialog asosida muhokama qilish, refleksiv topshiriqlar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni birgalikda qo'llash bo'lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi haqidagi gipotezani tadqiqot doirasida qo'llab-quvvatladi. Pedagogik tajriba materiallari asosida tizimlashtirilgan mezonlar diagnostik topshiriqlarni tuzish va formativ baholashda qo'llanishi mumkin. Ular talabaning pedagogik qarorini qaysi dalillarga tayangan holda shakllantirgani va uni qay darajada asoslay olganini aniqlash imkonini beradi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash mashg'ulotlarida har bir mavzu yakunida qisqa refleksiv topshiriq berish, pedagogik amaliyotda esa bolalarning o'yin faoliyatiga oid muammoli vaziyatlarni kichik guruhlarda muhokama qilish maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlarda talabalar vaziyatga doir kuzatuv dalillarini keltirishi, muqobil yechimlarni qiyoslashi va tanlagan qarorini asoslashi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda shakllangan ko'nikmalarning vaqt o'tishi bilan qay darajada saqlanishi hamda bo'lajak tarbiyachilar ularni real pedagogik vaziyatlarda, xususan, bolalarning o'yin orqali o'rganishini kuzatish va baholashda qanday qo'llashi o'rganilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae: Insight Assessment, 2015. – 30 p.

2. Zohar A., Barzilai S. A Review of Research on Metacognition in Science Education: Current and Future Directions // Studies in Science Education. – 2013. – Vol. 49, № 2. – P. 121–169.

3. Ennis R. H. An Outline of Goals for a Critical Thinking Curriculum and Its Assessment [Elektron resurs]. – URL: https://criticalthinking.net/longdefinition/.

4. Facione P. A. A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. – Fullerton: California State University, 1990. – 98–99 p. – URL: https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED315423.pdf.

5. Paul R., Elder L. The Elements of Reasoning and the Intellectual Standards [Elektron resurs]. – URL: https://www.criticalthinking.org/pages/the-elements-of-reasoning-and-the-intellectual-standards/480.

6. Rashidova D. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanib tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini ijodiy tashkil etish // Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice. – 2024. – Vol. 2, № 1. – B. 1–8. – DOI: https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.mpttp.59714.

7. Abrami P. C., Bernard R. M., Borokhovski E. et al. Strategies for Teaching Students to Think Critically: A Meta-Analysis // Review of Educational Research. – 2015. – Vol. 85, № 2. – P. 275–314.